

E.O. TURGUNBOYEV

JINOYAT HUQUQI

(UMUMIY QISM)
(ALBOM SXEMALAR)



Toshkent - 2013

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

E.O. TURGUNBOYEV

JINOYAT HUQUQI

(UMUMIY QISM)

(Albom sxemalar)

Toshkent - 2013

UDK: 343 (075)

Toshkent davlat yuridik universiteti o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan 2013 yil 20 noyabrdagi 3-sonli bayonnomaga bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

Turgunboyev E.O.

Jinoyat huquqi (Umumiy qism): (Albom sxemalar).

O‘quv-uslubiy qo‘llanma. // Mas’ul muharrir
y.f.d., prof. **Q.R. Abdurasulova**.

–Toshkent: TDYU nashriyoti, 2013. –129 bet.

Sarlavhada: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi,
TDYU.

Tagrizchilar: Y.f.d., prof. B.J.Axrarov
Y.f.n. A.Otajonov

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanmada Jinoyat huquqi Umumiy qismi sxemalar orqali bayon qilingan bo‘lib, unda Jinoyat huquqi (Umumiy qism) fani mavzulari atroficha yoritib berilgan.


Albom-sxema O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi asosida tayyorlangan bo‘lib, unda Jinoyat kodeksining vazifalari, prinsiplari, jinoyat tushunchasi, jinoyat tarkibi, tamom bo‘lmagan jinoyatlar, bir qancha jinoyat sodir etish, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar, jazo, jazo tizimi, jazo tayinlash, javobgarlik va jazodan ozod qilish, sundlanganlik, voyaga yetmaganlarning javobgarligi, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar kabi masalalar sxema asosida ifodalab berilgan. O‘quv-uslubiy qo‘llanmadan amaliyot xodimlari, oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat talabalari va magistrлari foydalanishlari mumkin.

O‘quv-uslubiy qo‘llanma A-2 FQ-1-33850 A2-063 raqamli “O‘zbekiston Respublikasida jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish muammolari” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida chop etilmoqda.


© E.O.Turgunboyev

© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2013.


JINOYAT HUQUQI TUSHUNCHASI



JINOYAT HUQUQI FANINING PREDMETI VA TARTIBGA SOLISH USLUBI



O'ZBEKISTON JINOYAT HUQUQI TIZIMI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNI

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonuni

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umume'tirof etgan normalar asosida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи tomonidan qabul qilingan Jinoyat kodeksiiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi yangi jinoyat qonunlaridan iborat


Jinoyat kodeksi ikki qismdan: Umumiy va Maxsus qismlardan iborat

Umumiy qism quyidagi bo'limlardan: umumiy qoidalar, javobgarlik asoslari, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar, jazo va uni tayinlash, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari, tibbiy yo'sindagi majburlov choralaridan iborat


Maxsus qism quyidagi bo'limlardan iborat: shaxsga qarshi jinoyatlar, tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar, ekologiya sohasidagi jinoyatlar, hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar, harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlardan iborat

Jinoyat kodeksi jinoyat huquqining umumiy qoidalari va prinsiplari, vazifalari, qaysi ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarning jinoyat ekanligini, bunday jinoyatlar sodir etganlik uchun aybdor shaxslarga qanday jazolar va boshqa huquqiy ta'sir choralarining qo'llanishi mumkinligini belgilab beradi


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNINING VAZIFALARI




JINOYAT KODEKSINING PRINSIPLARI



Jinoyat-huquqiy taqiqlarning asoslanganligi



JINOYAT KODEKSINING AMAL QILISH DOIRASI



JINOYAT KODEKSINING VAQT BO‘YICHA AMAL QILISHI

Qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligi shu qilmish sodir etilgan vaqtida amalda bo‘lgan qonun bilan belgilanadi
(JK 13-modda)

Agar Jinoyat kodeksi moddasida harakat yoki harakatsizlik sodir qilish payti jinoyat tamomlangan payt deb hisoblangan bo‘lsa, ijtimoiy xavfli qilmish bajarilgan payt jinoyat sodir qilingan vaqt deb topiladi. Agarda Jinoyat kodeksi moddasida jinoiy oqibat yuz berishi bilan jinoyat tamom bo‘lgan deb hisoblangan bo‘lsa, jinoiy oqibat yuz bergen payt jinoyat sodir etish vaqt deb topiladi
(JK 13-modda)


Qonunning vaqt bo‘yicha amal qilishi (JK 13-modda)

Qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan, jazoni yengillashtiradigan yoki shaxsnинг ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega, ya’ni ushbu qonun kuchga kirgunga qadar tegishli jinoiy qilmish sodir etgan shaxsga, shu jumladan, jazoni o’tayotgan yoki o’tab bo‘lgan shaxslarga nisbatan, agar ular hali sudlangan hisoblansalar tatbiq etiladi


Qilmishni jinoyat deb hisoblaydigan, jazoni kuchaytiradigan yoki shaxsnинг holatini boshqacha tarzda yomonlashtiradigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas

JINOYAT QONUNINI SHARHLASH


Jinoyat qonunini sharhlash – bu jarayon qonunning mazmunini Oliy Majlis xohish-irodasiga mos kelgan holda tushuntirishdan iboratdir




JINOYAT KODEKSI NORMASINING TUZILISHI




Dispozitsiya turlari







JINOYAT TUSHUNCHASI (JK 14-modda)



JINOYATLARNI TASNIFFLASH (JK 15-modda)




JINOYAT UCHUN JAVOBGARLIK VA UNING ASOSLARI (JK 16-modda)

Jinoyat uchun javobgarlik – jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo’llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir

Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi

JINOYAT TARKIBI



JINOYAT TARKIBI VA UNING TURLARI

Jinoyat tarkibi-obyektiv va subyektiv belgilari yig‘indisidan iborat bo‘lib, ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida aniqlashga xizmat qiladi

Jinoyat tarkibining turlari


Ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab


Oddiy tarkibli jinoyatlarda sodir etilayotgan jinoyatning har biri uchun xarakterli bo‘lgan belgilari ko‘rsatilmay, jinoyatning nomi aytildi
(masalan: JK 97-modda, 1-qism)

Og‘irlashtiruvchi tarkib – uning asosiy tarkibiga nisbatan ijtimoiy xavflilik darajasi kattaligini ifodalaydi
(masalan: JK 97-modda, 2-qism)

Yengillashtiruvchi tarkib – asosiy tarkibiga nisbatan jinoyatning bu turini sodir etganlik uchun yengillashtiruvchi holat belgilari mavjudligini ifodalaydi
(masalan: JK 98-modda)

JINOYAT OBYEKTI







Obyekt jinoyatning tarkibiy qismi bo'lib, tajovuz unga bevosita ta'sir etib, ijtimoiy munosabat buziladi yoki uning buzilishi real xavf ostida qoldiradi

JINOYATNING OBYEKTIV TOMONI

Jinoyatning obyektiv tomoni belgilari





JINOYAT SUBYEKTI

Maxsus subyekti – bu subyektning zaruriy belgilari bilan birga (yosh, aqli rasolik), albatta, boshqa belgililar bo‘lishi kerakki, bunday belgisiz shaxsning tegishli norma bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas


**Jinoyat subyekti – bu jismoniy shaxslar
(JK 17-modda)**

Jismoniy shaxs (O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar)

Aqli rasolik –jinoyat sodir etish vaqtida o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va o‘z harakatlarini boshqara olgan shaxs
(JK 18-modda, 1-qism)


Jinoyat kodeksida belgilangan yoshga yetgan jismoniy shaxslar
(JK 17-modda)


Aqli norasolik (JK 18-modda, 2-qism.)




JINOYATNING SUBYEKTIV TOMONI

Jinoyatning subyektiv tomoni – bu shaxsning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi va uning oqibatiga nisbatan ruhiy munosabati.





Aybni tashkil etuvchi elementlar



Qasdning turlari (JK 21-modda)

To‘g‘ri qasd

Tafakkuriy holat – shaxsning ijtimoiy xavfli xarakterdagi qilmishini anglashi va uning ijtimoiy xavfli oqibatlarini ko‘ra bilishi

Irodaviy holat

Jinoyat sodir etgan shaxsning o‘zi sodir etgan qilmishidan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli oqibatni istagani


Egri qasd

Tafakkuriy holat – shaxsning ijtimoiy xavfli xarakterdagi qilmishini anglashi va uning ijtimoiy xavfli oqibatlarini ko‘ra bilishi


Irodaviy holat

Jinoyat sodir etgan shaxsning o‘zi sodir etgan qilmishidan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli oqibatni yuz berishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yishi



Qasdning boshqa turlari



Ehtiyyotsizlik va uning turlari (JK 22-modda)



Jinoyatning motiv va maqsadi




JINOYAT-HUQUQIY XATO

Xato – jinoyat huquqida shaxsning sodir qilgan holatlariga bo‘lgan noto‘g‘ri munosabatidir. Jinoyat huquqida xatoning 2 ta turi mavjud:
1) yuridik xato; 2) faktik xato.


Yuridik xato

Jinoyat huquqi nazariyasida shaxsning sodir qilingan qilmishning jinoyat-huquqiy motivi haqida noto‘g‘ri tasavvuri tushuniladi



Faktik xato

Faktik xato – tajovuz obyekti yoki ijtimoiy xavfli qilmishning obyektiv belgilariga nisbatan xato qilishdir



TAMOM BO'LMAGAN JINOYATLAR

Tamom bo'lmagan jinoyat

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish

Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish

Tamom bo'lgan jinoyat

Shaxsning qasddan qilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun shart-sharoitni yaratuvchi qilmishi o'ziga bog'liq bo'lmanagan holatlarga ko'ra sodir etilishi boshlangunga qadar to'xtatilgan bo'lsa, bunday qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko'rish deb topiladi.
(JK 25-modda, 1-qism)

Qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmanan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi
(JK 25-modda, 2-qism)

Jinoyat kodeksi Maxsus qismi normasi dispozitsiyasida nazarda tutilgan obyektiv tomonga xos barcha belgilarning mavjudligi qilmishni tamom bo'lgan jinoyat deb topish uchun asos bo'ladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlik ham ushbu Kodeks Maxsus qismining tamom bo'lgan jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi moddasiga muvofiq hal qilinadi (JK 25-modda, 3-qism)

Aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining Maxsus qismidagi tegishli moddalar bilan kvalifikatsiya qilinadi

Suiqasdning turlari

Suiqasd qilishning amalga oshirganlik darajasi

Tamom bo‘lmagan
suiqasd – aybdor o‘ziga
bog□liq bo‘lgan barcha
harakatlarni qilishga
ulgurmaydi, ya’ni
aybdorning o‘ziga
bog□liq bo‘lmagan
sabablarga ko‘ra jinoyat
oxiriga yetkazilmaydi

Tamom bo‘lgan suiqasd
– jinoiy maqsadga
erishish uchun aybdor
o‘ziga bog‘liq bo‘lgan
barcha harakatlarni
qiladi, ammo uning
o‘ziga bog‘liq
bo‘lmagan sabablariga
ko‘ra jinoyat oxiriga
yetkazilmaydi

Suiqasdning yaroqlilik darajasiga ko‘ra

Yaroqsiz obyektga
tajovuz qilish, subyekt
o‘z harakatini muayyan
tajovuz qilishga
yo‘naltiradi, ammo o‘z
xatosiga ko‘ra, tajovuz
qilgan obyektga hech
qanday zarar
yetkazilmaydi

Yaroqsiz vositalar bilan
suiqasd qilish deganda,
jinoyatni oxiriga
yetkazish uchun
yaroqsiz bo‘lgan
vositalarni qo‘llab,
tajovuz qilish
tushuniladi

JINOYAT SODIR ETISHDAN IXTIYORIY QAYTISH (JK 26-modda)

Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko'rish harakatlarni yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda to'xtatsa, shuningdek jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi
(JK 26-modda, 1-qism)

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish javobgarlikni istisno qiladi (JK 26-modda, 2-qism)

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning shakllari (JK 26-modda)

Shaxs tomonidan jinoyatga tayyorgarlik ko'rishning oldini olish yoxud jinoyatni sodir etishni to'xtatish, shuningdek, jinoiy oqibatni kelib chiqishining oldini olish

Shaxs jinoyatni oxiriga yetkazish imkoniborligini anglagan holda, jinoiy oqibat kelib chiqishining oldini oladi

Sodir qilingan qilmishda jinoyat tarkibining biror belgisi mavjud emas

Aybdor jinoyatni oxiriga yetkazmay to'xtatadi

Jinoyatni oxiriga yetkazishdan ixtiyoriy qaytgan shaxs, agar amalda sodir etgan qilmishida boshqa jinoyat tarkibining barcha alomatlari bo'lsa, ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

JINOYATDA ISHTIROKCHILIK

Ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi (JK 27-modda)

Ishtirokchilikning obyektiv va subyektiv belgilari

Ikki yoki undan ortiq shaxslarning mavjudligi

Ishtirokchilikda aybning qasd shakli mavjudligi


Birgalikda ishtirok etib, ko'zda tutilgan jinoyat sodir etiladi, jinoiy faoliyatda esa birlashgan kuchlar yordamida amalga oshiriladi. Bu har bir ishtirokchining qilmishi bir-birini o'zaro to'ldiradigan, boshqa ishtirokchilar xatti-harakatini amalga oshirish uchun zaruriy shart ekanligi, barcha ishtirokchilarning qilmishi bajaruvchining jinoyatni sodir etishi lozimligini hamda ishtirokchilar uchun boshlangan jinoiy oqibatning umumiyligini ifodalaydi

OBYEKTIV BELGILARI

SUBYEKTIV BELGILARI

Ishtirokchilik subyektiv tomonining o'ziga xosligi jinoyatdagi yoki jinoiy faoliyati bilan shug'ullanishi uchun tashkil etilgan jinoiy guruhdagi har bir ishtirokchi boshqa sheriklarining jinoiy qilmishidan xabardorligidan iborat.

JINOYAT ISHITIROKCHILARINING TURLARI (JK 28-modda)



Ishitirokchilik shakllari

(JK 29-modda)


Oddiy ishtirokchilik – ikki yoki undan ortiq shaxsnинг oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi
(JK 29-modda, 2-qism)

Murakkab ishtirokchilik – ikki yoki undan ortiq shaxsnинг oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilishida ishtirok qilishi
(JK 29-modda, 2-qism)

Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishi (JK 29-modda, 5-qism). Shuningdek, uyushgan qurolli guruh tuzish (242-moddaning, 2-qismi) jinoiy uyushma deb topiladi

Uyushgan guruh – ikki yoki undan ortiq shaxsnинг birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhgа birlashishi
(JK 29-modda, 3-qism)

JINOYATDA ISHTIROK ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK DOIRASI



Jinoyatga daxldorlik – boshqalar sodir etgan jinoyatda qatnashmagan, lekin u bilan bog'liq bo'lgan shaxsnинг qasddan qilgan xatti-harakatiga aytildi (JK 31-modda)

Daxldorlik shakllari

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rileyotganligi, jinoyat sodir etileyotganligi yoki jinoyat sodir etilganligi haqida aniq bila turib, oldindan va'da bermagan holda, hokimiyat organlariga xabar qilmaslik, JKning 241-moddasida nazarda tutilgan hollardagina javobgarlikka sabab bo'ladi (JK 31-modda, 1-qism)
(og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar haqida)

Jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli va vositalarini, jinoyat izlarini yoki jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni oldindan va'da bermagan holda yashirganlik JKning 241-moddasida nazarda tutilgan hollardagina javobgarlikka sabab o'ladi
(JK 31-modda, 2-qism)
(og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar haqida)

Oldindan va'da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaganlik yoki jinoyatni yashirganlik uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yaqin qarindoshlari javobgarlikka tortilmaydi
(JK 31-modda, 3-qism)

BIR QANCHА JINOYAT SODIR ETISH


Bir qanchа jinoyat sodir etish tushunchasi va belgilari

Shaxs javobgarlikka tortilgan yoki tortilmaganligidan, sudlangan yoki sudlanmaganligidan qat'iy nazar ikki yoki undan ortiq mustaqil tarkibli jinoyatlarni sodir etganligidir.

Shaxs tomonidan ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etish

Shaxs tomonidan turli vaqtlarda yoki bir paytning o'zida ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etish

Har bir sodir etilgan jinoyatning – alohida-alohida huquqiy oqibatlarga olib kelishidan iborat



TAKRORAN JINOYAT SODIR ETISH (JK 32-modda)

Ushbu kodeks Maxsus qismining aynan bir moddasida, qismida, Kodeksda alohida ko'rsatilgan hollarda esa, turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki bir necha jinoyatni shaxs turli vaqtlarda sodir etgan, ammo ularning birortasi uchun ham sudlangan bo'lmasa, takroran jinoyat sodir etish deb topiladi. (JK 32-modda, 1-qism)

Tamom bo'lgan jinoyat ham, jazoga sazovor bo'lgan jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki jinoyat sodir etishga suiqasd qilish ham, shuningdek ishtirokchilikda jinoyat sodir etish ham takroran jinoyat sodir etish deb topiladi

(JK 32-modda, 1-qism)

Jinoyatni takroran sodir qilingan deb topmaslik shartlari

Agar shaxs ilgari sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan bo'lsa, jinoyat takroran sodir etilgan deb topilmaydi

(JK 32-modda, 2-qism)

Umumiy qasd bilan qamrab olingan va yagona maqsadga yo'naltirilgan bir jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi bir-biriga o'xshash bir necha jinoiy qilmishlardan iborat bo'lgan (davomli) jinoyat takroran sodir etilgan deb topilmaydi

Vazifalarni uzoq vaqt mobaynida bajarmaslikdan iborat bo'lib, bir jinoyatning uzlusiz tarkibini tashkil qilgan (uzoqqa cho'zilgan) jinoyat takroran sodir etilgan deb topilmaydi

YAGONA MURAKKAB JINOYATLAR

Yagona murakkab jinoyat

Davomli jinoyat

Umumiy qasd bilan qamrab olingen va yagona maqsadga yo'naltirilgan bir jinoyat tarkibini tashkil etuvchi bir-biriga o'xshash bir necha jinoiy qilmishlardan iborat jinoyat
(masalan: JK 103-modda)

Uzoqqa cho'zilgan jinoyat

Vazifalarni uzoq vaqt mobaynida bajarmaslikdan iborat bo'lib, bir jinoyatning uzlusiz davomini tashkil qilgan jinoyat
(masalan: JK 287-modda)

Murakkab tarkibli jinoyat

Yagona bir jinoyatni tashkil etuvchi, ammo kamida ikkita obyektga tajovuz qiluvchi jinoyatlar. Masalan: 193,194, 195, 196-moddalar va hokazolar


JINOYATLAR MAJMUI (JK 33-modda)

Ushbu Kodeks Maxsus qismining turli moddalarida yoki bitta moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan, javobgarlikka tortiladigan ikki yoki bir necha jinoiy qilmishni sodir etish, agarda ulardan birortasi uchun ham shaxs sudlangan bo‘lmasa, jinoyatlar majmui deb topiladi (33-modda, 1-qism)

Shaxsning bir harakati bilan JK Maxsus qismining ikki yoki undan ortiq moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etishi jinoyatlarning ideal jami deb topiladi

Shaxsning JK Maxsus qismining turli moddalarida yoki bitta moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlarni turli vaqtlarda sodir etishi jinoyatlarning real jami deb topiladi

JINOYATLAR MAJMUUNING YAGONA MURAKKAB JINOYATLARDAN FARQI



RETSIDIV JINOYAT (JK 34-modda)

Shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsidiiv jinoyat deb topiladi
(JK 34-modda, 1-qism)

Oddiy retsidiiv
(JK 34-modda, 1-qism)

Shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsidiiv jinoyatdir

Xavfli retsidiiv
(JK 34-modda, 2-qism)

Ilgari hukm qilingan jinoyatiga o'xhash jinoyat sodir etgan, Kodeksda alohida ko'rsatilgan hollarda esa, Maxsus qismning boshqa moddalari bilan ham hukm qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi xavfli retsidiiv jinoyat deb topiladi

O'ta xavfli retsidiiv
(JK 34-modda, 3-qism)

O'ta xavfli retsidiiv jinoyat deb 5 yildan kam bo'Imagan muddatga ozodlikdan mahrum etiladigan qasddan jinoyat sodir etish hollari hisoblanadi.

1) o'ta og'ir jinoyatlar uchun, agar oldindan o'ta og'ir jinoyati uchun yoki og'ir jinoyati uchun ikki marta sudlangan va har biri uchun 5 yildan kam bo'Imagan muddatga jazo olgan bo'lsa;
2) og'ir jinoyati uchun, agar u oldin sodir etgan og'ir jinoyati uchun 2 marta sudlangan bo'lsa, yoki har qaysi og'ir va o'ta og'ir jinoyati uchun 5 yildan kam bo'Imagan muddatga jazo tayinlangan bo'lsa

Shaxslar sudning hukmiga ko'ra o'ta xavfli retsidiivist deb topilishi mumkin

Shaxsni o'ta xavfli retsidiivist deb hisoblashda, uning boshqa davlatlarda sodir etgan jinoyati ham hisobga olinishi mumkin

Shaxsnii o'ta xavfli retsidiivist deb tan olishda, uning 18 yoshgacha sodir etgan jinoyati, sudlanganligining olib tashlangan va qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik muddatlari o'tib ketganligi inobatga olinmaydi

JINOYAT-HUQUQIY ME'YORLAR RAQOBATI VA ULARNING TURLARI

Raqobat deganda, shuni tushunish kerakki, bunda JK Umumiy qismi yoki Maxsus qismi moddalarida berilgan, ya'ni bitta jinoiy faoliyat o'z ichiga ikki yoki undan ortiq jinoyat-huquqiy normalar belgilarini qamrab olishi tushuniladi

Umumiy va maxsus normalar raqobati


Qisman yoki butun raqobat

Hajmiga ko'ra har xil bo'lgan ikki yoki undan ortiq moddalarni bir vaqtning o'zida bir qonunda mavjud bo'lganda amal qiladi. Masalan, JKning 205-moddasiga 210-nisbatan umumiy, 210-moddasiga 205-nisbatan maxsusdir. Normalar raqobati umumiy va maxsus baholangan tarkibni, ikki yoki undan ortiq baholangan tarkibni; ikki yoki undan ortiq imtiyozli tarkibni baholangan va imtiyozlangan tarkibning raqobatini farqlaydi.

Qisman yoki butun raqobat quyidagi hollarda, ya'ni qonunda bir necha norma belgilangan bo'lsa va ulardan biri sodir qilingan faoliyatni butunligicha ikkinchisi esa uni qisman qamrab olgan hollarda amal qiladi. Qism yoki butun raqobat quyidagi hollarda, ya'ni maxsus qism moddasida ko'rsatilgan jinoyat qonuniga muvofiq boshqa og'ir jinoyatning zaruriy belgisini yoki uning muayyan bosqichini tashkil qilsa yuzaga keladi.


QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILADIGAN HOLATLAR

Qilmishda JKda nazarda tutilgan alomatlar rasmiy jihatdan mavjud bo'lsada, lekin u ijtimoiy xavfli, g'ayriqonuniy yoki aybli bo'limasa, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi (JK 35-modda).



Kam ahamiyatli qilmishning belgilari

(JK 36-modda)



Zaruriy mudofaa shartlari

(JK 37-modda)

Tajovuzga nisbatan

Huquqqa xiolfilik, ya'ni qilmish Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan bo'lishi kerak

Quyidagi hollarda tajovuzga faol qarshilik ko'rsatish huquqi vujudga keladi

- 1) hujum xavfi chinakam mavjud bo'lganda;
- 2) hujum allaqachon boshlangan, biroq hali tugamaganda;
- 3) zaruriy mudofaaning tugallangan hujumdan so'ng sodir etilishida, ya'ni hujumning tugallanganligini mudofaa qilinayotgan shaxs turli sabablarga ko'ra bilmaganligidir

Reallik - tajovuzga oid ikkinchi shaxs sifatida zaruriy mudofaaning o'z vaqtida amalga oshishini ifodalaydi

Zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya'ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlарини qонунга xilof tajovuzlardан tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog'ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa jinoyat deb topilmaydi. Tajovuzning xususiyati va xavfiliги darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi

Mudofaaga nisbatan

Tajovuzchiga zarar yetkazgan holda

Zaruriy chegarada olib borilishi – himoyada ijtimoiy foydali maqsad kasb etish kerak

O'z manfaatlарини himoya qilish zaruriy mudofaa chegarasida olib borilishi kerak. Chegara himoyaning xarakteriga va xavfning darajasiga muvofiq o'rnatiladi.

OXIRGI ZARURAT (JK 38-modda)

Oxirgi zarurat holatida, ya'ni, shaxsning yoki boshqa fuqarolarning shaxsiga yoxud huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariiga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazgan holda qilmish, basharti, shu xavfni o'sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo'lmasa hamda keltirilgan zarar oldi olingen zararga qaraganda kamroq bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi
(JK 38-modda)

Oxirgi zaruratning huquqiyligi shartlari

Xavf tug'ilishiga oid

Xavfning paydo bo'lishi

Xavfning mavjudligi

Xavfning chinakamligi

Oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishning qonuniyligini baholashda oldi olinishi lozim bo'lgan xavfning xususiyati va xavflilik darajasi, shunday xavfning haqiqatan mavjud yoki mavjud emasligi va yuz berish vaqtining yaqinligi, xavfni qaytaruvchi shaxsning mavjud imkoniyatlari, vujudga kelgan vaziyatdagi ruhiy holati va ishning boshqa holatlari hisobga olinadi

(JK 38-modda, 4-qism)

Oxirgi zaruratning huquqiyligi shartlari

Ijtimoiy foydali maqsadning mavjudligi


Amalda sodir etilgan zararning daf etilgan zarar miqdoridan kamligi

Zararni uchinchi shaxslar manfaatlariiga yetkazilishi

Xavfni boshqa vositalar bilan daf etib bo'lmashlik

Jismoniy yoki ruhiy majburlash natijasida huquqlar va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik masalasi ushbu modda qoidalarini hisobga olgan holda hal qilinadi

IJTIMOIY XAVFLI QILMISH SODIR ETGAN SHAXSNI USHLASH VAQTIDA ZARAR YETKAZISH (JK 39-modda)



BUYRUQ YOKI BOSHQA VAZIFANI IJRO ETISH (JK 40-modda)

Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish shartlari

Jinoiyligi oldindan ayon bo'lgan buyruq
yoki boshqa farmoyishni bajarmaganida

Huquqqa xilof ravishda berilgan buyruq,
farmoyishlar yoxud mansab vazifalarini
bajarmaganida

Huquqqa xilof ravishda berilgan buyruq, farmoyish yoki xizmat
vazifalarini bajarmaslik

Jinoiyligi oldindan ayon bo'lgan buyruq
yoki boshqa farmoyishni bajarib, jinoyat
sodir etgan shaxs, umumiy asoslarda
javobgarlikka tortiladi
(JK 40-modda, 2-qism)

Shaxsning buyruq yoki boshqa
farmoyishni, shuningdek mansab
vazifalarini qonunan bajarishi tufayli
zarar yetkazilgan bo'lsa, jinoyat deb
topilmaydi
(JK 40-modda, 1-qism)

KASB YOKI XO'JALIK FAOLIYATIGA BOG'LIQ ASOSLI TAVAKKALCHILIK

(JK 41-modda)

Ijtimoiy foydali maqsadga erishish uchun kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik qilib, huquqlar va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish jinoyat deb topilmaydi
(JK 41 modda, 1-qism)

Ijtimoiy foydali maqsadga tavakkalchilik orqali erishish

Tavakkal qilish huquqini amalga oshirayotgan shaxs huquqlariga va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga yetkaziladigan zarami daf etish uchun barcha zarur tadbirlarni ko'rish kerak

Xavf tug'dirayotgan holatni bartaraf etish uchun shaxs huquqlar va qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish bilan o'zini oqlagan tavakkalga qo'l uradi. Bunday holatlar mustaqil baholanib oxirgi zaruratga tenglashtirilmaydi.


Tavakkalchilik ijtimoiy foydali natijaga erishishning yagona imkoniyati bo'lishi kerak

Tavakkalli harakatlar hozirgi zamon ijmiy-teknikaviy bilimlar va mazkur sohada erishilgan amaliy tajribaga muvofiq bo'lishi kerak

Tavakkalchilik odamlarning halok bo'lishi xavfi, ekologik halokat yoxud boshqacha og'ir oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini bila turib qilingan bo'lsa, asosli deb topilmaydi.

Tadbirkorlik subyektlarining o'qizlari ko'rsatilgan xizmatlar, shu jumladan berilgan kreditlar yuzasidan banklar va boshqa moliya tashkilotlari oldidagi shartnoma majburiyatlarini tadbirkorlik tavakkalchiliklari hamda boshqa tijorat tavakkalchiliklari bilan bog'liq holda bajarilmaganligi banklar va boshqa moliya xodimlarini jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmaydi.

JAZO TUSHUNCHASI VA MAQSADI



Jazo tushunchasi

(JK 42-modda, 1-qism)


**Jazo – bu davlatning majburlov
chorasidir**

Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb
topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan
sud hukmi bilan qo'llaniladi

Mahkumni qonunda nazarda tutilgan
muayyan huquq va erkinliklaridan mahrum
qilish yoki ularni cheklashdan iborat

Jazoning maqsadlari

(JK 42-modda, 2-qism)



JAZO TIZIMI

Jazo tizimi - amaldagi jinoyat qonuni bilan belgilangan jazolarning og'irlik xususiyatiga qarab muayyan tartibda joylashtirilgan jazo turlarining qat'iy ro'yxatidir
(JK 43-modda)

Jazo tizimining ahamiyati

Jazo tizimi JKning Maxsus qismi moddalari bo'yicha sanksiya belgilashga sharoit yaratadi

Qonuniylik prinsipini ta'minlashning muhim vositali jazoni qo'llashda bir xillikni belgilashdir

Jazoni individuallashtirish imkonini beradi


Jazo tizimining ahamiyati

Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi


Sudlar uchun majburiy

Jazo tizimini eng yengilidan eng og'iriga qarab qat'iy ketma-ketlikda joylashtirilgan jazolarning to'liq ro'yxatidir

Jazo tizimi (JK 43-modda)



Jazoning asosiy va qo'shimcha turlari
(JK 43-modda)



JARIMA (JK 44-modda)

Jarima- aybdordan davlat daromadiga

Jinoyat kodeksida belgilangan miqdorda, ya'ni, eng kam oylik ish haqining 5 baravaridan 600 baravarigacha miqdorda pul undirishdir (JK 44-modda)

Sud tomonidan tayinlanadi

Agar hukm qilingan shaxs jazo tariqasida tayinlangan jarimani majburiy ijro etish uchun belgilangan muddatlarda to'lashdan bo'yin tovlasa yoxud qarzdorda undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulk mavjud emasligi tufayli majburiy ijro etish uchun belgilangan muddat mobaynida jarimani undirishning inkoni bo'lmasa, xuddi shuningdek kechiktirish muddati tugaganidan keyin jarima to'lanmagan yoki jarimani bo'lib-bo'lib to'lash shartlari buzilgan taqdirda, sud jarimanining to'lanmagan miqdorini quyidagi jazo turlari bilan almashtiradi.

Bu holda axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolarining har bir oyi eng kam oylik ish haqining 16 baravari miqdoridagi jarimaga almashtirilib, uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga tayinlanadi

Qamoqni har bir oyi eng kam oylik ish haqining 100 barvari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib olti oydan ko'p bo'lmagan muddatga tayinlanadi.

MUAYYAN HUQUQDAN MAHRUM QILISH (JK 45-modda)


Shaxsni muayyan huquqdan mahrum qilish sud tayinlagan muddat davomida aybdorning korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda u yoki bu mansabni egallashini yoxud u yoki faoliyati bilan shug‘ullanishini taqiqlashdan iboratdir. Ana shunday mansab yoki faoliyatning turi sud tomonidan ayblov hukmida ko‘rsatiladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish aybdorning mansabi yoki ish faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jinoyatni sodir etganligi uchun asosiy jazo tariqasida tayinlanganda bir yildan besh yilgacha muddatga, qo‘srimcha jazo tariqasida tayinlanganda bir yildan uch yilgacha muddatga belgilanadi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismiga jo‘natish yoki qamoq jazosiga qo‘srimcha jazo tariqasida tayinlangan bo‘lsa, asosiy jazoning butun muddatiga, bundan tashqari, sud hukmi bilan tayinlangan muddatga joriy etiladi. Bu jazo boshqa asosiy jazolarga qo‘srimcha jazo tariqasida tayinlanganda va mahkum shartli hukm qilinganda uning muddati hukm qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab hisoblanadi.

Agar muayyan huquqdan mahrum qilish aybdorga asosiy jazo tariqasida tayinlanmagan bo‘lsa, bunday jazo sud tomonidan ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan har qanday turdag'i jazoga qo‘srimcha jazo tariqasida tayinlanishi mumkin.

AXLOQ TUZATISH ISHLARI (JK 46-modda)



XIZMAT BO‘YICHA CHEKLASH (JK 47-modda)

Xizmat bo‘yicha cheklash - harbiy xizmatni kontrakt bo‘yicha o‘tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko‘rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, pul ta’minotining o‘n foizidan o‘ttiz foizigacha bo‘lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolishdan iborat

Xizmat bo‘yicha cheklash
jazosi ushbu Kodeks
Maxsus qismining
moddasida nazarda
tutilgan hollarda ikki
oydan uch yilgacha
muddatga qo‘llaniladi
(JK 47-modda, 2-qism)

Xizmat bo‘yicha cheklash tariqasidagi
jazoni o‘tash muddati davomida
mahkumning mansabini, harbiy yoki maxsus
unvonini oshirish mumkin emas, jazoni
o‘tagan vaqt esa uning ko‘p yil ishlaganligi,
navbatdagi harbiy yoki maxsus unvon
hamda pensiya olish uchun asos bo‘ladigan
xizmat muddatiga qo‘shilmaydi

Ijtimoiy xavfi katta bo‘limgan jinoyat yoki og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarmagan ehtiyoitsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat uchun sud ish holatlari va mahkumning shaxsini inobatga olgan holda uch yildan ko‘p bo‘limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish, qamoq yoki axloq tuzatish ishlari jazosi o‘rniga shu muddatga xizmat bo‘yicha cheklash jazosini qo‘llashi mumkin (JK 47-modda, 2-qism)

Qamoq
(JK 48-modda)

Qamoq shaxsni batamom ajratgan sharoit ostida saqlashdan iborat bo'lib, bir oydan olti oygacha muddatga belgilanadi


INTIZOMIY QISMGA JO‘NATISH (JK 49-modda)

Intizomiy qismga jo‘natish - muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisini sud tomonidan belgilangan muddat mobaynida ichki tartibi ancha qattiq bo‘lgan maxsus harbiy qismga joylashtirish orqali, muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum etishdir

Intizomiy qismga jo‘natish jazosi JK Maxsus qismining moddasida nazarda tutilgan hollarda uch oydan bir yilgacha muddatga qo‘llaniladi

Sud ish holatlari va mahkumning shaxsini hisobga olgan holda uch yildan ko‘p bo‘lмаган muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘rniga shu muddatga intizomiy qismga jo‘natish jazosini qo‘llashi mumkin

OZODLIKDAN MAHRUM QILISH (JK 50-modda)



OZODLIK DAN MAHRUM QILINGAN MAHKUMLARGA JAZONI IJRO ETISH KOLONIYA TURLARINI TAYINLASH

Ozodlikdan mahrum qilingan erkak jinsidagi mahkumlarga jazoni
quyidagicha o'tash tayinlanadi

Ijtimoiy xavfi katta bo'lмаган,
еҳтийотсизликдан sodir etган,
qasдан uncha og'ир bo'lмаган
jinoyat uchun tayinlangan ozodlikdan
mahrum qilishni – manzil koloniyalarda o'taydilar

Qasddan og'ир va o'ta og'ир jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum qilinayotganlar umumiy tartibli koloniyalarda o'taydilar

Ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tab chiqib, qasddan yangi sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinayotgan shaxslarga nisbatan jazoni qattiq tartibli koloniyalarda o'taydilar

O'ta xavfli retsidiivistlarga nisbatan jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o'tash tayinlanadi. Umrbod ozodlikdan mahrum etishga hukm etilganlar, shuningdek afv etish tartibida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar ham jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o'taydilar

Ozodlikdan mahrum qilingan ayollar o'z jazo muddatlarini quyidagi yerlarda o'taydilar

Ijtimoiy xavfi katta bo'limgan, ehtiyoitsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlarga hamda qasddan uncha og'ir bo'limgan jinoyat sodir etganlarga nisbatan manzil-koloniyalarda

Og'ir va o'ta og'ir jinoyat uchun jazoni umumiy tartibli koloniyalarda

Ilgari ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tab chiqib, yangi sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinayotganlarga, o'ta xavfli retsidivistlarga nisbatan jazoni qattiq tartibli koloniyalarda

Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish jazoning muayyan qismiga, lekin besh yildan ko'p bo'limgan muddatga


O'ta xavfli retsidivistlarga

Og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan tayinlanadi


Ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyat sodir etganlik, ehtiyoitsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlik va qasddan uncha og'ir bo'limgan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo homilador ayollarga va uch yoshga to'limgan bolalari bor ayollarga nisbatan, pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan tayinlanmaydi.

Sud tomonidan jazoni manzil-koloniyada o'tashi tayinlangan mahkum saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topilgan taqdirda, sud uni jazoning o'talmagan qismi muddatiga umumiy tartibli koloniyaga o'tkazadi

UMRBOD OZODLIKDAN MAHRUM QILISH (JK 51-modda)




HARBIY YOKI MAXSUS UNVONDAN MAHRUM QILISH (JK 52-modda)



JAZO TAYINLASH

Jazo tayinlashning umumiy asoslari (JK 54-modda)

Jinoyat sodir etishda qonunda belgilangan tartibda aybli deb topilgan shaxs jazoga tortiladi. Sud JK Maxsus qismining jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddasida belgilangan doirada Umumiy qismining qoidalariga muvofiq jazo tayinlaydi.



JAZONI YENGILLASHTIRUVCHI HOLATLAR (JK 55-modda)

Jazoni yengillashtiruvchi holatlar:

Aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishi yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish

Og‘ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish

Majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish

Jabrlanuvchining zo‘rlik, og‘ir haqorat yoki boshqacha g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etishi

Homilador ayolning jinoyat sodir etishi

Jabrlanuvchining g‘ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta’siri ostida jinoyat sodir etishi

Yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish

Zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish

Jazo tayinlashda sud ushbu moddada nazarda tutilmagan boshqa holatlarni ham yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin

Yengillashtiruvchi holat JK Maxsus qismining moddasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilgan bo‘lsa, jazo tayinlashda hisobga olinmaydi

Voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishi

JAZONI OG‘IRLASHTIRUVCHI HOLATLAR (JK 56-modda)

Quyidagi holatlarda jinoyat sodir etish jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar deb topiladi

Homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan

Irqi yoki milliy dushmanlik yoxud adovat zamirida

Yosh bola, qariya yoki ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan

Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma tomonidan

Xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarganligi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan

Ilgari ham qasddan jinoyat sodir etgan shaxsning takroran yoki qasddan yangi jinoyat sodir etishi


O‘ta shafqatsizlik bilan

Ko‘pchilik uchun xavfli bo‘lgan usulda

Mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop yoxud insonning aql-idrokiga ta’sir qiluvchi boshqa moddalar ta’siri ostida jinoyat sodir etish

Yosh bola yoki ruhiy kasalligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsdan foydalangan holda

JAZONI OG'IRLASHTIRUVCHI HOLATLAR (JK 56-modda)



YENGILROQ JAZO TAYINLASH (JK 57-modda)

Sud sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlarni e'tiborga olib, alohida hollarda JK Maxsus qismining moddasida nazarda tutilgan mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdag'i jazoni tayinlashi mumkin

Sud shu asoslarni e'tiborga olib, JK Maxsus qismining moddasida qo'llanilishi shart deb ko'rsatilgan qo'shimcha jazoni tayinlamasligi ham mumkin


Sodir etilgan qilmish xususiyatlarini ifodalovchi holatlar

1. Qilmish.
2. Aybdorning shaxsi.
3. Ayb shakli va darajasi.
4. Shaxsning jinoyat qilguncha va undan keyingi xulq-atvori.
5. Jinoyatni sodir qilish sharoiti va sabablari.

Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar deb topishi mumkin

AYBDOR O'Z QILMISHIGA AMALDA PUSHAYMON BO'LGANIDA JAZO TAYINLASH (57¹-modda)

Aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganida unga nisbatan tayinlanadigan jazo muddati va miqdori Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning uchdan ikki qismidan oshmasligi kerak. Bunda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:



Tamom bo'Imagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash tartibi (JK 58-modda)

Sud tamom bo'Imagan jinoyat uchun jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qilgan holda jinoyatning og'ir-yengilligini, jinoiy niyat amalga oshirilganlik darajasini va jinoyatni oxiriga yetkaza olmaganlik sabablarini ham hisobga oladi

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori JK Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'ridan uch qismidan oshmasligi kerak. Mazkur qoida:

- o'ta xavfli retsidivistlarga, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a'zolariga nisbatan;
- tinchlik va xavfsizlikka qarshi tamom bo'Imagan jinoyatlar uchun, shuningdek quyidagilar bilan:
- javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish bilan;
- o'n to'rt yoshga bo'lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiy usulda qondirish bilan;
- yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdag'i ommaviy qirg'in qurolini, bunday qurol yaratishda foydalanish mumkinligi ayon bo'lgan materiallarni hamda uskunalarni kontrabanda qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar uchun jazolar tayinlashda qo'llanilmaydi.

Tamom bo'Imagan jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi mumkin emas

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashda sud har qaysi aybdorning jinoyatda ishtirok etganlik xususiyati va darajasini hisobga oladi. Har qaysi ishtirokchining shaxsiga tegishli bo'lgan yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar sud tomonidan faqat shu ishtirokchining o'ziga jazo tayinlashda hisobga olinadi

Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlash (JK 59-modda)

Shaxs JK Maxsus qismining turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki undan ortiq jinoyatlarni sodir etgan bo'lib, ularning birortasi uchun ham sudlangan bo'limasa, sud ushbu Kodeksning 54-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq 59-modda qoidalari asosida jazo tayinlanadi

Agar jinoyatlar majmuini faqat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar tashkil etsa, unda tayinlangan yengilroq jazoni og'irrog'i bilan qoplash yoxud tayinlangan jazolarni to'la yoki qisman qo'shish yo'li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi. Bunda uzil-kesil tayinlangan jazo sodir etilgan jinoyatlardan eng og'iri uchun nazarda tutilgan eng ko'p jazo muddatidan yoki me'yordan ortiq bo'imasligi lozim.

Agar jinoyatlar majmuini tashkil etuvchi jinoyatlardan loaqlal bittasi og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, ushbu Kodeksning Umumiy qismida shu jazo turi uchun belgilangan doirada tayinlangan jazolarni to'la yoki qisman qo'shish yo'li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi.

Sodir etilgan jinoyatlardan bittasi uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanganda yengilroq turdag'i jazoni umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan qoplash orqali jazo uzil-kesil tayinlanadi.

Sodir etilgan jinoyatlardan bittasi uchun usoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanganda jazolarni to'la yoki qisman qo'shish yoxud yengilroq jazoni og'irrog'i bilan qoplash orqali jazo uzil-kesil tayinlanadi.

Jinoyatlar majmui bo'yicha har xil turdag'i jazolarni qo'shish yo'li bilan jazo tayinlashda JKning 61-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilinib, jazoning og'irroq turi uzil-kesil tayinlanadi

Jinoyatlar majmuui bo'yicha tayinlangan asosiy jazoga sud ayrim jinoyatlar uchun tayinlangan qo'shimcha jazolarni ham qo'shib tayinlashi mumkin. Bunda muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi qo'shimcha jazoning uzil-kesil tayinlangan muddati JK 45-moddasida nazarda tutilgan eng ko'p muddatidan ortiq bo'imasligi kerak

Agar ish bo'yicha hukm chiqarilganidan keyin mahkumning birinchi ish bo'yicha chiqarilgan hukmiga yana boshqa jinoyatda aybli ekanligi aniqlansa ham jazo o'sha taribda tayinlanadi. Bunday holda jinoyatlar majmuui tariqasida sud tomonidan tayinlangan jazo muddatiga birinchi hukm yuzasidan jazoning o'talgan qismi ham qo'shiladi

BIR NECHA HUKM YUZASIDAN JAZO TAYINLASH (JK 60-modda)

Agar mahkum hukm chiqarilgandan keyin jazoni to'la o'tab bo'lmay turib, yangi jinoyat sodir etsa, sud yangi hukm bo'yicha tayinlangan jazo muddatiga ilgarigi hukm yuzasidan o'talmay qolgan jazo muddatini to'la yoki qisman qo'shadi

Bir necha hukm yuzasidan har xil turdag'i jazolarni qo'shish yo'li bilan jazo tayinlashda JKning 61-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilinib, jazoning og'irroq turi uzil-kesil tayinlanadi

Agar hukmlardan biri bilan umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlangan bo'lsa, bir necha hukmlar yuzasidan jazolarni qo'shishda yengilroq jazo turini umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan qoplash orqali jazo uzil-kesil hal qilinadi.

Agar hukmlardan biri uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo'lsa, bir necha hukmlar yuzasidan jazolarni qo'shishda yengilroq jazoni og'irrog'i bilan qoplash yoxud jazolarni to'la yoki qisman qo'shish yo'li bilan jazo uzil-kesil tayinladi.

Bir necha hukm yuzasidan axloq tuzatish ishlariiga yoki xizmat bo'yicha cheklashga hukm qilinib, ish haqi yoki pul ta'minotidan ushlab qolishning har xil miqdori belgilangan hollarda bu jazolarning faqat muddatlari qo'shiladi

Ilgarigi hukm yuzasidan ijro etilmay qolgan qo'shimcha jazolar hukmlar jami tariqasida tayinlangan asosiy jazoga qo'shibil tayinlanadi

JAZOLARNI QO'SHISHNING HISOBLASH QOIDALARI (JK 61-modda)

Har xil turdag'i asosiy jazolarni qo'shganda ozodlikdan mahrum qilishning bir kuni:

Qamoq yoki intizomiy qismga
jo'natishning bir kuniga
(JK 61-modda, 1-qism)

Axloq tuzatish ishlari yoki xizmat
bo'yicha cheklashning uch kuniga to'g'ri
keladi (JK 61-modda, 1-qism)

Jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar ozodlikdan
mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, qamoq, xizmat bo'yicha cheklash,
axloq tuzatish ishlari jazolari bilan qo'shilganda har qaysisi alohida ijro etiladi


DASTLABKI QAMOQ VAQTINI HISOBGA OLİSH (JK 62-modda)

Sud jazo tayinlash vaqtida dastlabki qamoqning har bir kunini

Qamoq, intizomiy qismiga jo'natish va
ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga (JK
62-modda, 1-qism, «a» bandi)

Axloq tuzatish ishlari yoki xizmat bo'yicha
cheklashning uch kuniga tenglashtirib hisoblaydi
(JK 62-modda, 1-qism, «b» bandi)

JAZO MUDDATLARINI HISOBBLASH (JK 63-modda)



JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish o‘z mazmuniga ko‘ra jinoyatni sodir etgan shaxsnı mazkur qilmishning huquqiy oqibatlardan sud tomonidan ozod etilishidir

Bu shuni anglatadiki

Jinoyat sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi

Ayblov hukmini chiqarishdan voz kechish


Tayinlanishi mumkin bo‘lgan jazodan butunlay ozod etish

Bu sudning huquqi, ammo majburiyati emas

Jinoyat-huquqiy oqibatlarga sabab bo‘lmasligi

Jinoiy javobgarlikdan voz kechish masalasini faqat sud hal qiladi

Javobgarlikdan ozod qilishning turlari



Javobgarlikka tortish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish (JK 64-modda)

Agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab quyidagi muddatlar o'tib ketgan bo'lsa shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat
sodir etilgan kundan
boshlab – 3 yil

Og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab
– 10 yil

Javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir
etilgan kundan boshlab hukm qonuniy
kuchga kirgan kungacha hisoblanadi (JK
64-modda, 2-qism)

Uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan
kundan boshlab – 5 yil

O'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab
o'n besh yil o'tib ketgan bo'lsa, shaxs
javobgarlikdan ozod qilinadi. (JK 64-
moddasining 7-qismida nazarda tutilgan hol
bundan mustasno)

Agar og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxs ushbu
moddada nazarda tutilgan muddatlar o'tmasdan turib qasddan
yangi jinoyat sodir etsa, muddatning o'tishi uziladi. Bunday
holda javobgarlikka tortish muddatlari yangi jinoyat sodir
etilgan kundan boshlab hisoblanadi. Qolgan hollarda, agar
shaxs javobgarlikka tortish muddatlari o'tmasdan yangi jinoyat
sodir etsa, bu muddatlar har bir jinoyat uchun alohida
hisoblanadi
(JK 64-modda, 4-qism)

Agar jinoyat sodir etgan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs tergov yoki suddan yashirinsa, muddatning o'tishi to'xtatiladi. Aybdor ushlangan yoki aybini bo'yniga olib arz qilgan kundan boshlab muddatning o'tishi qaytadan tiklanadi.

(JK 64-modda, 3-qism)

Agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab 25 yil o'tgan bo'lsa, shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

(JK 64-modda, 7-qism)

Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi

(JK 64-modda, 7-qism)

JK Maxsus qismining moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan javobgarlikka tortish muddatlarini qo'llash masalasi sud tomonidan hal qilinadi. Agar sud javobgarlikka tortish muddatini qo'llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'miga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanadi.

(JK 64-modda, 6-qism)

**Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfeligini yo‘qotganligi munosabati bilan
javobgarlikdan ozod qilish (JK 65-modda)**

Ishni tergov qilish yoki sudda ko‘rish vaqtida sharoit o‘zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish o‘zining ijtimoiy xavfeligini yo‘qotgan deb topilsa, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin (JK 65-modda, 1-qism)

Ishni tergov qilish yoki sudda ko‘rish vaqtida sharoit o‘zgarganligi tufayli jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotgan deb topilsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin (JK 65-modda, 2-qism)

**Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon
bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish**
(JK 66-modda)

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergen va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida alohida ko‘rsatilgan hollarda, jinoyat sodir etgan shaxs o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinishi lozim

Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (JK 66¹-modda)

"Ushbu Kodeks 105-moddasining birinchi qismida (qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish), 106-moddasida (kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish), 107-moddasida (zaruriy mudosfa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish), 108-moddasida (ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushplashning zarur choralar chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish), 109-moddasida (qasddan badanga yengil shikast yetkazish), 110-moddasining birinchi qismida (qiyash), 111-moddasida (ehtiyoitsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish), 113-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (tanosil yoki OITS kasalligini taraqlish), 115-moddasida (ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushrirshga majburlash), 116-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik), 117-moddasining birinchi qismida (xavf ostida qoldirish), 121-moddasining birinchi qismida (ayolni jinsiyl aloqa qilishga majbur etish), 122-moddasida (voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovash), 123-moddasida (ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovash), 125-moddasining birinchi qismida (farzandlikka olish sirini oshkor qilish), 136-moddasida (ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish), 138-moddasining birinchi qismida (zo'rlik ishlatiq g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish), 139-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (tuhimat), 140-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (haqorat qilish), 143-moddasida (xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish), 148-moddasida (mehnat qilish huquqini buzish), 149-moddasida (mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish), 167-moddasining birinchi qismida (o'zlashtirish yoki rastrata yo'lli bilan talon-toroj qilish), 168-moddasining birinchi qismida (firibgarlik), 169-moddasining birinchi qismida (o'g'rilik), 170-moddasining birinchi qismida hamda ikkinchi qismining "b" va "v" bandlarida (aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'lli bilan mulkiy zarar yetkazish), 172-moddasida (mulkn qo'riqlashga vijdonsiz munosabatda bo'lish), 173-moddasining birinchi qismida (mulkn qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish), 180-moddasida (soxta bankrotlik), 181-moddasida (bankrotlikni yashirish), 185²-moddasida (elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish), 189-moddasida (savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish), 191-moddasida (qonunga xi洛 ravishda axborot toplash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish), 192-moddasida (raqobatchini obro'sizlantirish), 229-moddasida (o'zboshimchalik), 256-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish), 257-moddasining birinchi qismida (inchnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish), 258-moddasining birinchi qismida (tug'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish), 259-moddasining birinchi qismida (yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish), 260-moddasining birinchi qismida (temiryo'l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish), 266-moddasining birinchi qismida (transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish), 268-moddasining birinchi qismida (transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarini buzish), 277-moddasining birinchi qismida (bezorilik), 298-moddasining birinchi qismida (mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish) nazarida tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqror bo'lsa, jabraniuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin".

Og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat-larni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi

KASALLIK TUFAYLI JAVOBGARLIK DAN OZOD QILISH (JK 67-modda)

Jinoyat sodir etgan shaxs hukm chiqarilgunga qadar o‘z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va o‘z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chaliniq qolgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi

Bunday shaxsga nisbatan sud tomonidan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar qo‘llanishi mumkin.

Bunday shaxs ushbu Kodeksning 64-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o‘tmasdan tuzalsa, javobgarlikka tortiladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari sud tomonidan tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi qo‘llanilgan kundan hisoblanadi.


Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish
(JK 68-modda)



Jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi
mumkin

JAZODAN OZOD QILISH

Jazodan ozod qilishning turlari



Jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 69-modda)

Agar hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab quyidagi muddatlarda jazo ijro etilmagan bo'lsa, mahkum asosiy va qo'shimcha jazolardan ozod qilinadi.

Uch yildan ortiq bo'Imagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'Imagan jazoga hukm qilinganda – uch yil

Besh yildan ortiq bo'Imagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda - besh yil

O'n yildan ortiq bo'Imagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda - o'n yil

O'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda - o'n besh yil

Agar jazo tayinlangan kundan boshlab yigirma besh yil o'tgan bo'lsa jazoni ijro etish mumkin emas
(JK 69-modda, 4-qism)

Agar mahkum ushbu moddada nazarda tutilgan jazoni o'tashdan bo'yin tovlasa, jazoni ijro etish muddati ikki baravar ko'payadi va jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan kundan boshlab hisoblanadi, lekin yigirma besh yildan oshinasligi kerak (JK 69-modda, 2-qism)

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan shaxsga nisbatan muddatlar o'tishini qo'llash masalasi sud tomonidan hal qilinadi. Agar sud muddatlar o'tishini qo'llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtiriladi (JK 69-modda, 5-qism)


Agar shaxs ushbu moddada ko'rsatilgan muddatlar o'tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatlarning o'tishi uzeliladi. Bunday holda muddatlarning o'tishini hisoblash yangi jinoyat sodir etilgan paytdan qaytadan boshlanadi (JK 69-modda, 3-qism)

Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyati uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi
(JK 69-modda, 6-qism)

**Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati
bilan uni jazodan ozod qilish**
(JK 70-modda)

Jinoyat sodir etgan shaxs agar ish sudda ko‘rilayotgan vaqtgacha sharoit o‘zgarsa yoki shaxs namunali xulqi, mehnatga yoki o‘qishga halol munosabati bilan o‘zini ko‘rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo‘qotdi deb e’tirof etilsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin

Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 71-modda)



Boshqa shaxslar bilan birgalikda jinoyat sodir etishda ishtirok qilgan yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma a’zosi bo‘lgan shaxs, agar u aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, jinoyatning oldini olish, jinoyatni ochish yoki uning tashkilotchilarini yoxud boshqa ishtirokchilarini aniqlash va fosh qilishga yordam bergan bo‘lsa, basharti u og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etishda bevosita ishtirok etmagan bo‘lsa, sud tomonidan jazodan ozod qilinishi mumkin.
(JK 71-modda, 2-qism)

Shartli hukm qilish (JK 72-modda)

Shartli hukm qilish shaxsni jazodan ozod qilishning sud amaliyotida keng qo'llaniladigan va jinoyat qonuning insonparvarlik prinsipi ko'proq mujassamlashgan turidir

Shartli hukm qilishning qo'llanish asoslari

Agar ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismiga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini tayinlasa

Sud:

Jazo tayinlash vaqtida sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavfifilik darajasi, aybdorning shaxsi va ishdagi boshqa holatlarni e'tiborga olib, aybdor tayinlangan jazoni o'tamasdan turib hain uning xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat'iy fikrga kelsa, shartli hukm qo'llashi mumkin

Shartli hukm qilishda basharti belgilangan sinov muddati davomida shartli hukmmi bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, tayinlangan jazoni ijro etmaslik to'g'risidagi qaror chiqaradi. Sinov muddati bir yildan uch yilgacha belgilanib, hukm chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi. Basharti, shartli hukm qilish to'g'risidagi qaror yuqori turuvchi sud tomonidan chiqarilgan taqdirda ham, sinov muddatini hisoblash shu kundan boshlanadi

Shartli hukm qilinganda, basharti, bunga asoslar mavjud bo'lsa, sud mahkumga muayyan vaqt mobaynida yetkazilgan zararni bartaraf qilish, ishga yoki o'qishga kirish, yashash joyi, ish yoki o'qish joyi o'zgarib qolsa, bu haqda shartli hukm qilingan shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organga xabar berib turish, vaqtiga vaqtiga bilan kelib bu organlarda ro'yxatdan o'tib turish, muayyan joylarda bo'lmaslik, muayyan vaqtida yashash joyida bo'lishi, alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik, tanosil kasalligidan davolanish kursini o'tashi kabi majburiyatlarni yuklashi mumkin. (JK 72-modda, 3-qism)

Shartli hukm qilingan shartlarini o‘zgartirish asoslari

(JK 72-modda, 2-qism)

Shartli hukm qilingan shaxslarning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organning taqdimi bilan sud sinov muddati davomida unga yuklatilgan majburiyatlarning hammasini yoki bir qismini olib tashlashi yoki uning zimmasiga yangi majburiyatlar yuklashi ham mumkin.

Agar shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida sud unga yuklagan majburiyatlarni bajarmasa yoxud jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun unga ma’muriy yoki intizomiy ta’sir chorasi qo’llanilgan bo’lsa sud uning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organ taqdimnomasiga binoan jazoning shartliligini bekor qilib, hukmda tayinlangan jazoni ijro etish to‘g’risida ajrim chiqarishi mumkin

Shartli hukm o‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinganlarga, shuningdek ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo’llanilmaydi, o’n sakkiz yoshga to‘limgan shaxslar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ayollar, shuningdek oltmisht yoshdan oshgan shaxslar bundan mustasno

Shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida yangi jinoyat sodir etsa, sud unga nisbatan ushbu Kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha jazo tayinlaydi

JAZONI O'TASHDAN MUDDATIDAN ILGARI SHARTLI RAVISHDA OZOD QILISH (JK 73-modda)

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslari

Ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismiga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan

JK 73-moddasiga muvofiq sudlangan shaxsni jazoni o'tash muddati

Ijtimoiy xavfi katta bo'lмаган yoki uncha og'ir bo'lмаган jinoyati uchun

Qasddan sodir etgan og'ir jinoyati uchun

O'ta og'ir jinoyati uchun

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ushbu moddaning 1-qismida ko'rsatilgan jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llaniladi

Sud tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini o'taganidan keyin

agar shaxs ilgari qasddan sodir etgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa sud tayinlangan jazo muddatining kamida yarmini o'taganidan keyin

Sud tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'l-lanilishi mumkin

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan sud ushbu Kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi

Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish quyidagi shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi

Umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxsga

O'ta xavfli retsidivistga

Uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuvchilariga

Javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish, o'n to'rt yoshta to'lмаганлиги aybdorga ayon bo'lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiyy usulda qondirish, O'zbekiston Respublikasiga, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etish, yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qирғиң qurollarini, shunday qurollarni ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkinligi ayon bo'lgan material va uskunalarini kontrabanda qilish uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan

JAZONI YENGILROG‘I BILAN ALMASHTIRISH

(JK 74-modda)

Ozodlikdan mahrum etilgan yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan sud jazoning o‘talmagan qismini yengilrog‘i jazo bilan almashtirish JK 74-moddasi, 1-qismida ko‘rsatilgan jazo turlari uchun o‘matilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo‘lgan mahkumga nisbatan qo‘llanilishi mumkin

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llanilganda mahkum:

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган yoki uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida to‘rtдан bir qismini o‘tagan bo‘lsa

Og‘ir jinoyati uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar u ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo‘lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini o‘tagan bo‘lsa

O‘ta og‘ir jinoyati uchun, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llanilgan va jazoning o‘talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan yangi jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin qo‘llanilishi mumkin

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoning o‘talnagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish jazosining o‘talnagan qismi muddatiga tayinlanadi.

Jazoning o‘talmagan qismini yengilrog‘i bilan almashtirish quyidagilarga nisbatan qo‘llanilmaydi: a) umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxsga; b) o‘ta xavfli retsidivistga; v) uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuvchilariga; g) javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish, o‘n to‘rt yoshga to‘lмаганиги aybdorga ayon bo‘lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yokiunga nisbatan zo‘rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiyy usulda qondirish, O‘zbekiston Respublikasiga, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etish, jinoiy uyushma tashkil etish, yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qирғ‘ин qуollарини, shunday qуollарни ishlаб chиqарish uchun foydalaniш mumkinligi ayon bo‘lgan material va uskunalarini, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni kontrabanda qilganlik uchun hukm qilingan shaxslar

Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatiда jazodan ozod qilish

(JK 75-modda)

Shaxs hukm chiqarilganidan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka, shuningdek jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqacha og'ir kasallikka chalinib qolsa, jazoni o'tashdan ozod qilinishi lozim

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan sud tibbiy yo'sindagi majburlov choralar qo'llashi mumkin

Bunday shaxslar tuzalganidan keyin, ushbu Kodeksning 69-moddasida nazarda tutilgan va sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralar qo'llanilgan kundan boshlab hisoblanadigan muddatlar o'tib ketmagan bo'lsa, jazo ijro etiladi

Intizomiy qismiga jo'natish yoxud xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar, ularning sog'lig'i harbiy xizmat uchun yaroqsiz deb topilgan bo'lsa, jazoni o'tashdan ozod qilinadilar. Xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchi ayollar ularga horiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ham jazoni o'tashdan ozod qilinadilar

Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish

(JK 76-modda)

Hukm etilgan shaxs amnistiya akti yoki afv etish asosida asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazolardan ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoki unga tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin


Agar amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoxud jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilgan shaxs jazoning o'talmay qolgan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sud unga ushbu Kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha jazo tayinlaydi.

Afv etish to'g'risidagi iltimosnama umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazoning yigirma besh yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin, agar jazoni o'tash davrida mahkum qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo'layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda faol ishtirot etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning yigirma yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin berilishi mumkin.

Afv etish to'g'risidagi iltimosnama uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazo muddatining yigirma yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin, agar jazoni o'tash davrida mahkum qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo'layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda faol ishtirot etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning o'n besh yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin berilishi mumkin.

SUDLANGANLIK

Sudlanganlikning huquqiy ahamiyati (JK 77-modda)



Sudlanganlik holatining tugallanishi

(JK 78-modda)

Shaxsning sudlanganlik holati quyidagi paytlarda tugallanadi:

Sharli hukm qilinganlarga nisbatan - sinov
muddati tugagan kundan boshlab

Qamoq jazosi o'talganidan keyin - ikki yil
o'tgach

Xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy
qismiga jo'natish tarzidagi jazolarini o'tab
chiqqach

Besh yildan ko'p bo'limgan muddatga
ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan
keyin - to'rt yil o'tgach;

Jarima jazosi ijro etilgan kundan keyin,
shuningdek muayyan huquqdan mahrum qilish
yoki axloq tuzatish ishlari jazolari o'talganidan
keyin bir yil o'tgach

Besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'limgan
muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi
o'talganidan keyin - yetti yil o'tgach;

O'n yildan ortiq, lekin o'n besh yildan ko'p
bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish
jazosi o'talganidan keyin – o'n yil o'tgach;

Sudlanganlik holatining tugallanishi deyilganda muayyan muddatlarning o'tishi bilan mazkur masalaga oid sudning maxsus
qarori qabul qilinmasdan barcha jinoyat-huquqiy oqibatlarning tugallanishini tushunish kerak.

Sudlanganlikning olib tashlanishi

(JK 79-modda)

Agar shaxs ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab bo'lganidan keyin unga nisbatan ma'muriy jazo yoki intizomiy ta'sir choralar qo'llanilmagan bo'lsa, jamoat birlashmasi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, jamoa yoki jazoni o'tab chiqqan shaxsning o'zi bergen iltimosnomasiga ko'ra sud ushbu Kodeksning 78-moddasida nazarda tutilgan muddatlarning kamida yarmi o'tganidan keyin uning sudlanganligini olib tashlashi mumkin.

Ushbu Kodeksning 178 – 184, 185 – 185², 189 – 192-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlik uchun hukm qilingan shaxslarning sudlanganligi ular davlatga juda ko'p miqdorda zarar yetkazmaganda, ushbu Kodeksning 78-moddasida nazarda tutilgan muddatlarning kamida to'rtadan bir qismi o'tgandañ keyin sud tomonidan olib tashlanishi mumkin

O'n besh yil va undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan shaxslar hamda o'ta xavfli retsivistlar, agar ular jazoni o'tab chiqqanidan keyin o'n besh yil mobaynida yangi jinoyat sodir etmasalar, sud ularning sudlanganligini olib tashlashi mumkin

Ushbu Kodeksning 13-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda ham sudlanganlik olib tashlanishi mumkin

Sudlanganlik afv etish yoki amnistiya akti asosida ham olib tashlanishi mumkin

Sudlanganlik holatining tugallanish yoki sudlanganlikni olib tashlash muddatlarini hisoblash

(JK 80-modda)

Sudlanganlik holatining tugallanish yoki sudlanganlikni olib tashlash muddatlarini asosiy va qo'shimcha jazolar o'tab bo'lingan yoki ijro etilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Agar ushbu Kodeksning 44, 46-moddalari asosida hukm bo'yicha tayinlangan jazoni sud boshqa jazo bilan almashtirgan bo'lsa, sudlanganlik muddati jazoning amalda o'tab bo'lingan yoki ijro etilgan qismidan hisoblanadi.


Agar shaxs tayinlangan jazodan qonunda belgilangan tartibda muddatidan ilgari ozod qilingan yoxud jazo yengilrog'i bilan almashtirilgan bo'lsa, sudlanganlik muddati muddatidan ilgari ozod qilingan yoki yengilrog'i bilan almashtirilgan jazoning amalda o'tab bo'lingan qismidan hisoblanadi.

Agar jazoni o'tab chiqqan shaxs sudlanganlik holatining muddati tugamay yana jinoyat sodir etsa, sudlanganlik holatini tugatuvchi muddatning o'tishi to'xtatiladi. Ilgari sodir etilgan jinoyat uchun sudlanganlik holatining tugash muddati oxirgi sodir etilgan jinoyat uchun (asosiy va qo'shimcha) jazoni amalda o'tab bo'lganidan hisoblanadi


VOYAGA YETMAGANLAR JAVOBGARLIGINING XUSUSIYATLARI

Jinoyat sodir etgan paytda shaxs 14 yoshga to‘lgan, lekin 18 yoshga to‘lmasa, voyaga yetmagan shaxs deb topiladi

Jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan



Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tizimi



Jarima

(JK 82-modda)

Jarima eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan yigirma
baravarigacha miqdorda tayinlanadi

Mahkum jarima to'lashdan olti oy muddat mobaynida bo'yin
tovlasa, sud to'lanmagan jarima miqdorini axloq tuzatish ishlari
jazosi bilan almashtiradi. Bunda eng kam oylik ish haqining ikki
barvari miqdoridagi jarima axloq tuzatish ishlarining bir oyiga
teenglashtirib hisoblanadi

Axloq tuzatish ishlari

(JK 83-modda)

Axloq tuzatish ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan o‘z ish joyida o‘tash, aybdor hech qayerda ishlamasa, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o‘zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o‘tash tariqasida bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi

Voyaga yetmagan shaxs tayinlangan axloq tuzatish ishlarining o‘ndan bir qismidan ko‘prog‘ini o‘tashdan bo‘yin tovlasa, sud bu jazoning o‘talmagan qismini axloq tuzatish ishlarining har uch kunini qamoqning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, qamoq jazosi bilan almashtiradi, ammo bu muddat uch oydan oshmasligi kerak

Qamoq
(JK 84-modda)



Qamoq voyaga yetmagan shaxslar uchun bir oydan uch oygacha
muddatga tayinlanadi

Ozodlikdan mahrum qilish

(JK 85-modda)

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi olti oydan o'n yilgacha muddatga tayinlanadi, ushbu Kodeks 86-moddasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o'n uch yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lган shaxslarga nisbatan:

Og'ir jinoyat uchun - olti yilgacha tayinlanadi

O'ta og'ir jinoyat uchun - o'n yilgacha muddatga tayinlanadi

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lган shaxslarga nisbatan:

Og'ir jinoyat uchun - yetti yilgacha tayinlanadi

O'ta og'ir jinoyat uchun - o'n yilgacha muddatga tayinlanadi

Voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo'lman jinoyat sodir etgan, ehtiyojsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og'ir bo'lman jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi

Hukm chiqarish paytida o'n sakkiz yoshga to'lman shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini tarbiya koloniyalarda o'tash tayinlanadi.

Jazo tayinlash

(JK 86-modda)

Sud voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qiladi, voyaga yetmaganning rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasini, sog'lig'ini, sodir etgan jinoyatining sabablarini, katta yoshdagilarning va boshqa holatlarning uning shaxsiga ta'sirini hisobga oladi.

O'n uch yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan vaqtida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmui tariqasida jazo tayinlanganda ozodlikdan mahrum qilishning eng ko'p muddati o'n yilgacha, agar sodir etgan jinoyatlarining bittasi o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, o'n ikki yilgacha tayinlanadi

O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan vaqtida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmu'i tariqasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi - o'n ikki yilgacha muddatiga, agar sodir etgan jinoyatlarining bittasi o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, o'n besh yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin

Jinoyat sodir etish paytida o'n uch yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan bir necha hukm yuzasidan tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddati o'n besh yildan oshmasligi kerak

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlanganda sud ushbu Kodeksning 72-moddasida nazarda tutilgan asos va shartlar mavjud bo'lsa, shartli jazo belgilashi mumkin

JAVOBGARLIKDAN YOKI JAZODAN OZOD QILISH

Majburlov choralarini qo'llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish (JK 87-modda)

Ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxs, agar sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorming shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, uni jazo qo'llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyada ko'rishga topshirilishi mumkin
(JK 87-modda, 1-qism)

Voyaga yetmagan sbaxs rivojlanishda o'z yoshiba nisbatan ancha orqada qolgan bo'lsa va sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetmasa, sud jazo o'miga majburlov chorasi qo'llash maqsadga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqishi shart

Besh yildan ko'p bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash nazarda tutilgan uncha og'ir bo'limgan jinoyatni birinchi marta sodir etgan yoki ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyatni takroran sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni, mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mayjud bo'lsa, sud jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart.

Majburlov choralar

(JK 88-modda)

Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan quyidagi majburlov choralar qo'llaniladi

Sud belgilaydigan shaklda
jabrlanuvchidan urz so'rash
majburiyatini yuklash

O'n olti yoshga to'lgan shaxs zimmasiga
yetkazilgan zararni o'z mablag'i hisobidan yoki
mehnati bilan to'lash yoki bartaraf qilish
majburiyatini yuklash. Ushbu chora agar
yetkazilgan zarar belgilangan eng kam oylik ish
haqining o'n baravaridan oshib ketmagan bo'lsa
qo'llaniladi. Boshqa hollarda yetkazilgan zarar
fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida
undiriladi

Voyaga yetmaganni maxsus
o'quv-tarbiya muassasasiga
joylashtirish

Voyaga yetmagan shaxslarni maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida bo'llish muddati
va shartlari O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan belgilanadi

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish (JK 89-m)

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ushu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan jazo turlari uchun belgilangan tartib-qoida talablarini bajargan mehnat va o'qishga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llanilishi mumkin

O'n sakkiz yoshga to'limasdan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilishga yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish tartibi qo'llanilishi mumkin

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish

Ijtimoiy xavfi katta bo'limgan yoki uncha og'ir bo'limgan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to'rtidan bir qismi

Og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismi

O'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llaniladi

Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sud unga nisbatan ushu Kodeksning 60 va 86-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi

Voyaga yetmagan shaxslarni jazoni o'tash muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish asoslari

Jazoni o'tash tartib-qoida talablarini bajarganligi

Mehratga va o'qishga halol munosabati

Jazoni qonunda belgilangan qismini o'tab bo'lganligi

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (JK 90-modda)

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish belgilangan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnat yoki o'qishga halol munosabatda bo'lib kelayotgan mahkumga nisbatan qo'llanilishi mumkin

O'n sakkiz yoshga to'lguncha sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishiga hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoning o'talmagan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin

Jazoning o'talmagan qismini yengilrog'i bilan almashtirish

Og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to'rtdan bir qismi

Ijtimoiy xavfi katta bo'lмаган yoki uncha og'ir bo'lмаган jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida beshdan bir qismi

O'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini o'tab bo'lganidan keyin qo'llanilishi mumkin

Ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'talmagan qismi axloq tuzatish ishi bilan almashtirilganda axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'talmagan qismi muddatiga tayinlanadi.

Jazo yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxslarga nisbatan yengilroq jazoning tegishli qismi o'tab bo'linganidan keyin ushb'u Kodeksning 89-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq, jazordan muddatidan ilgari shartli ravjshda ozod qilish qo'llanilishi mumkin

Jazo yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sud unga nisbatan ushb'u Kodeksning 60 va 86-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi

TIBBIY YO‘SINDAGI MAJBURLOV CHORALARI

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining maqsadlari

(JK 91-modda)

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini ruhiy kasallik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarga nisbatan ularni davolash va ularning yangi ijtimoiy xavfli harakatlar sodir etishining oldini olish maqsadida tayinlanishi mumkin

Sud jazolash bilan bir qatorda alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlik kasalligiga yo‘liqqa shaxslarga nisbatan davolash uchun va jazolash maqsadiga erishishga ko‘maklashuvchi sharoit yaratish uchun tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini tayinlashi mumkin.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashning umumiy asoslari

(JK 92-modda)

Ijtimoiy xavfli qilmishni aqli norasolik holatida yoki hukm chiqarilgunga qadar yoxud jazoni o‘tash vaqtida ruhiy kasallikka chalinganligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini anglamaslik va o‘z harakatlarini boshqara olmaslik holatida sodir etgan shaxsga nisbatan, agar u ruhiy holati va sodir etgan qilmishining xususiyatiga ko‘ra jamiyat uchun xavfli deb topilsa, sud tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini tayinlashi mumkin

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining turlari

(JK 93-modda)

Majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo'lish va ruhiy
kasallik mutaxassisida davolanish

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy
davolanish

Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida
yoki bo'linmasida majburiy davolanish

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog'liqni
tiklash maxsus bo'limida majburiy davolanish

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlash

(JK 94-modda)

Majburiy ambulatoriya kuzatuvi va ruhiy kasallik mutaxassisida davolanish ruhiy kasalligi zo'rayib ketayotganligini ko'rsatuvchi alomatlar bo'lmagan, shuningdek ruhiy holati vaqtinchalik buzilgan ruhiy kasallarga nisbatan, bunday kasallikning qaytarilmasligi va yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilmasligi uchun tayinlanishi mumkin

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish ijtimoiy xavfliliqi ruhiy holati bilan bog'liq bo'lgan, umumiy asoslarda davolash talab etiladigan ruhiy kasallarga nisbatan tayinlanishi mumkin

Ijtimoiy xavfliliqi ko'proq salomatlikni tiklovchi choralarни ko'rishni talab qiladigan, ularni esa ixtiyoriy tartibda o'tkazish mumkin bo'lmagan ruhiy kasallarga nisbatan umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog'liqni tiklash maxsus bo'limida majburiy davolash tayinlanishi mumkin

Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo'limida majburiy davolash o'ta ijtimoiy xavfli bo'lgan yoki o'z xulqiga ko'ra umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasi sharoitida davolanishining imkonii bo'lmagan ruhiy kasallarga nisbatan tayinlanishi mumkin

**Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini muddatini
uzaytirish, o'zgartirish va bekor qilish (JK 95-modda)**

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini muddatini uzaytirish,
o'zgartirish va bekor qilish masalasini ruhiy kasalliklar shifokorlari
komissiyasining xulosasiga asoslangan holda sud hal qiladi

Agar ruhiy kasalga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburiy davolash
choralar qo'llash zarurati bo'lmasa, shuningdek bu choralar bekor
qilingan bo'lsa, sud uni umumiylashtirish davolash yoki ijtimoiy
ta'minot muassasalariga yuborish masalasini hal etish uchun
sog'liqni saqlash organlariga topshirishi mumkin

**Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka
yo'liqqan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi
choralarni qo'llash**

(JK 96-modda)

Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka
yo'liqqan shaxslar tomonidan jinoyat sodir
etilgani taqdirda, agar tibbiy xulosa mavjud bo'lsa,
sud jazo tayinlash bilan birga ularga tibbiy
yo'sindagi choralarni ham tayinlashi mumkin
(JK 96-modda, 1-qism)

Ushbu moddaning birinchi qismida
ko'rsatilgan shaxslar, ozodlikdan mahrum
qilish bilan bog'liq bo'lmanan jazoga hukm
qilingan bo'lsa, tibbiy muassasalarda majburiy
davolanishi lozim
(JK 96-modda, 2-qism)

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar
ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoq jazosiga hukm qilingan
bo'lsa, ularni davolash jazoni o'tayotgan joyda amalga
oshiriladi, jazoni o'tab bo'lganidan keyin agarda davolashni
davom ettirishga zarurat bo'lsa, umumiy asosda tibbiy
muassasalarda davolanadi
(JK 96-modda, 3-qism)

MUNDARIJA

Jinoyat huquqi tushunchasi.....	3
O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonuni	6
Jinoyat tushunchasi.....	16
Jinoyat tarkibi.....	19
Tamom bo‘lмаган jinoyatlar	36
Jinoyatda ishtirokchilik	39
Bir qancha jinoyat sodir etish	44
Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar.....	52
Jazo tushunchasi va maqsadi	59
Jazo tizimi	62
Jazo tayinlash	76
Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish	88
Jazodan ozod qilish	97
Sudlanganlik.....	108
Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari	112
Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar.....	123

E.O.TURGUNBOYEV

JINOYAT HUQUQI

(Umumiy qism)

(Albom sxemalar)

Muharrir: *N.J.Niyazova.*

Texnik muharrir: *D.S.Komilova.*

Kompyuterda sahifalovchi: *N.J.Niyazova.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.12.2013

Hajmi: 84x60 1/16/. 8 taboq. Adadi:50 ta. Buyurtma: № 60

MChJ “Munis design group” bosmaxonasida bosildi.

Toshkent shahri, I.Mo‘minov 13.